

ISHLAR O'QOQLIGI O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

TALABLARI VA AMALIYAT

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023-yil 07-ay 08-zi bilan tashriflangan

JURU MUSLAM:


O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60230100 - Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german  
tillari) bakalavriat ta'lif yo'naliishing malaka talablari**

Mas'ruq qo'shilganidan "Oliy ta'lif davlat ta'min standarti "Aqosiyligida" "Oliy ta'lif  
davlat ta'min standarti. Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi klassifikasiya" o'rinnidan  
tashriflangan. Nafaqah va mukammal usulda surʼatlashtirilgan. Ushbu standartiga yaqin  
baʼnuning qurʼoniga mosibatli shartlari va rasmli miʼnunuslari qo'shilgan.

O'zbekiston Respublikasi hukmchisi Matʼob talablarini, davlat standartini  
tashriflangan. Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

Toshkent



## **ISHLAB CHIQILGAN:**

- O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2023 yil «07 08» dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

**T/r**

		bet
1.	60230100 – Filologiya va tillarni o ‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishining tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	60230100 – Filologiya va tillarni o ‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60230100 – Filologiya va tillarni o ‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	60230100 – Filologiya va tillarni o ‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2.	60230100 – Filologiya va tillarni o ‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’yeqtлari.....	4
1.2.3.	60230100 – Filologiya va tillarni o ‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60230100 – Filologiya va tillarni o ‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrلarning kasbiy vazifaları.....	5
2.	60230100 – Filologiya va tillarni o ‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetentsiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetentsiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarini egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikasiya	8
2.3.2.	60230100 – Filologiya va tillarni o ‘qitish (roman-german tillari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar	9
2.3.3.	60230100 – Filologiya va tillarni o ‘qitish (roman-german tillari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi..... Bibliografik ma’lumotlar.....	9
	Kelishuv varag‘i .....	10
		11

## **1. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishining tavsifi**

**60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Malaka talabining qo‘llanishi.**

Malaka talabi **60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:**

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalar;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

##### **1.2.1. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari)** – gumanitar ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u uzlusiz ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, ommaviy axborot vositalari va nashriyotlarda faoliyat olib borish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

##### **1.2.2. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob’yektlari:**

- asosiy va ikkinchi chet tilining nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatish, mazkur tillarda ilmiy va badiiy adabiyotlarni o‘qish va og‘zaki nutq malakasini oshirish;
- asosiy hamda ikkinchi chet tili sifatida o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti, ularning tarixi va hozirgi holati, adabiy aloqalar tarjima nazariyasi va amaliyotining asoslari, matn tarjimasi, og‘zaki tarjima masalalari, o‘rganilayotgan til metodikasi, dars berish mahorati, nutq madaniyati tamoyillari;
- chet tili ta’limi jarayonlari, ta’lim tizimi o‘quv-tarbiya jarayoni, o‘qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;
- maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini ta’lim-tarbiya jarayoni, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari, muharrirlik va musahhihlik;

- chet tili ixtisosligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari;
- ixtisosligiga oid boshqa tashkilotlar.

**60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german tillari)** ta'limga yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'limga yo'nalishini tamomlagandan so'ng, uzuksiz ta'limga muassasalarida chet tili fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, tilshunoslik bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

#### **1.2.3. 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german tillari) ta'limga yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'limga tizimida pedagogik;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy tadqiqot;
- konsalting xizmati.

#### **1.2.4. 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german tillari) ta'limga yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.**

**60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german tillari)** ta'limga yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

##### **Umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'limga tizimida pedagogik faoliyatda:**

- uzuksiz ta'limga tizimining ixtisosligiga mos ta'limga muassasalarida o'rgangan asosiy va ikkinchi chet tillarini o'qitish;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lган o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalardan foydalanish;

- chet tillarni intensiv shaklda o'rgatish (qisqa kurslar);

- mustaqil ta'limga ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish.

##### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- roman german tillariga oid turli tadbir, anjuman va ma'rifiy suhbatlarni tashkillashtirish va boshqarish;

- ARMda axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lган jarayonlar monitoringi hamda sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

- fikrlar har xil bo'lган sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash.

##### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- filologiya sohasida ilmiy tekshirish institutlarida kichik ilmiy xodim, tadqiqotchi izlanuvchi sifatida na'munaviy usullar va boshqalar bo'yicha eksperimental o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

- namunaviy metodikalar va o'qitishning innovation usullari bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy axborotlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalar tuzish;

- ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ma'ruzachi, muhokamalarda qatnashuvchi va referent sifatida ishtiroy etish;

- sohaga oid jurnallarga maqola va taqrizlar tayyorlash;

- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, adabiy va lisoniy yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda izlash va topish;

- ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasasi jamoasi tarkibida kasbiy faoliyat masalalarini yechish.

#### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

- yo‘nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;

- ixtisoslikka mos sohalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lish;

- mamlakatdagi turli foydalanish ko‘lamiga ega bo‘lgan tillarga tizimli va funksional tavsif bera olish;

- kasbiy faoliyatda hozirgi va tarixiy adabiy jarayonlarni va turli janrga mansub badiiy asarlarni tahlil qila bilish.

### **2. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr larning kasbiy kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar**

#### **2.1. Umumiy kompetentsiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtmoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni tahlil qila olishi;
- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- o‘rgangan asosiy va ikkincha chet tillarida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy va ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi lozim.

#### **2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- Uzluksiz ta’lim tizimining ixtisosligiga mos ta’lim muassasalarida o‘rgangan asosiy va ikkinchi chet tillarini o‘qitish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- namunaviy metodikalar va innovasion ta’lim texnologiyalari bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish va ularning natijalari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- sohaga oid jurnallarga maqola va taqrizlar tayyorlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- eng yangi ilmiy, adabiy va lisoniy yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda izlash va topish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasasi jamoasi tarkibida kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- davlat va davlatga qarashli bo‘lmagan xususiy tashkilotlarda chet tillardan tarjimonlik qilish;
- texnik va boshqa tarjima turlarini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lish;
- mehmonxonalarda va sayyohlik firmalarida menejerlik va ma’muriy xodim sifatida ishslash;

- roman german tillariga oid turli tadbir, anjuman va ma'rifiy suhbatlarni tashkil etish va boshqarish;
- ommaviy axborot vositalarida muxbirlik va muharrirlik ishlarini amalga oshirish, mustaqil maqola, ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlash;
- nashriyot va tahrir sohasida badiiy va ilmiy asarlarni, sohaga oid risola va monografiyalar bo'yicha musahih va muharrirlik faoliyatini amalga oshirish;
- noshirlik muassasalarida tarjimon va adabiy xodim bo'lib faoliyat yuritish, arxiv va muzeylarda ekskursovod, ilmiy xodim sifatida ishlash va sohaga oid ish jarayonini tashkil qilish;
- xorijiy tillarni o'qitish va tarjimonlik faoliyati bilan bog'liq sohalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lish;
- mamlakatdagi turli foydalanish ko'lamiga ega bo'lgan tillarga tizimli va funksional tavslif bera olish;
- turli tashkilotlarda tarjimonlik faoliyati va gid hamrohligini amalga oshirish, havo yo'llarida servis xizmati, turli firma va mehmonxonalarda menejer xizmatini ko'rsata olish;
- uzluksiz ta'lif tizimi muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni toplash, umumlashtirish va tahlil etish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tatbiq etishni bilish;
- O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimida chet tilini o'qitishdan maqsad ta'lim oluvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda maishiy, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat yuritishi uchun chet tilida kommunikativ kompetentsiyani (uning tarkibiy qismlari hisoblanuvchi lingvistik, ijtimoiy lingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy madaniy, ijtimoiy va o'quv-anglash kompetentsiyalari asosida) shakllantirishdan iborat.

**Chet tili kommunikativ kompetentsiyasi** – “o'rganilayotgan chet tilida so'zlashuvchilar bilan o'zga tilda muloqot qilishni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligi, shuningdek, talabalarni tili o'rganilayotgan mamlakatlar/mamlakat madaniyati bilan tanishish, o'z mamlakati madaniyatini yanada yaxshiroq anglash, uni muloqot jarayonida ko'rsata olish”ni nazarda tutadi.

Mazkur malakaviy talablarning asosiy vazifalari talabalarda quyidagi kompetentsiyalarning takomilashtirilishini nazarda tutadi:

- **Lingvistik kompetentsiya** o'rganilayotgan til egalari bilan muloqot qilish uchun til haqidagi ma'lumotlarni (fonetika, leksika, grammatikani) yetarli darajada bilish va nutq faoliyati turlarini (tinglab-tushunish, gapirish, o'qish va yozish) egallashni nazarda tutadi.
- **Ijtimoiy-lingvistik (nutqiy) kompetentsiya** so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi.
- **Diskursiv kompetentsiya** (diskurs – bu og'zaki yoki yozma matn) matnni to'g'ri talqin qilish va tuzish, shunga mos nutqiy muloqot turini tanlash uchun og'zaki va yozma matnlarning lingvistik, stilistik hamda tarkibiy xususiyatlarini bilib olishni nazarda tutadi.
- **Strategik (kompenzator) kompetentsiya** tilni yetarli darajada bilmaslik, shuningdek, chet tili muhitida nutqiy hamda ijtimoiy muloqot tajribasidagi kamchilik va nuqsonlarni ayrim verbal/noverbal vositalar yordamida to'ldirish, kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi.
- **Ijtimoiy-madaniy kompetentsiya** autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko'zda tutadi.
- **Ijtimoiy kompetentsiya** hozirgi ko'pmadaniyatli dunyoda ta'lim oluvchilarda chet tilini o'rganish muhimligi tushunchasi; chet tilidan muloqot qilish, anglash, o'z ustida mustaqil ishslash va ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida foydalanish ehtiyojini shakllantirish va rivojlantirish, fuqarolik, vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalashda, chet tili orqali madaniyatlar o'rtasida suhbatlarni amalga oshirish istagi va xohishida namoyon bo'ladi.
- **O'quv-anglash kompetentsiya** ta'lim oluvchining chet tillar va madaniyatlarini o'rganishning mustaqil bilim olish faoliyatidagi kompetentsiyalar yig'indisi bo'lib, real bilish ob'yektlari va

zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan mantiqiy, metodologik, umumo‘quv faoliyati elementlarini o‘z ichiga oladi.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmasetligda kiritiladigan **majburiy** va **tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

- Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘srimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

- pedagogik amaliyot — pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

#### **2.3.1. Kvalifikasiya:** filolog, pedagog (asosiy va ikkinchi til bo‘yicha)

**2.3.2. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5340	178
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	540	18
Yakuniy davlat attestasiyasi	120	4

**2.3.3. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5340</b>	<b>178</b>	
1.01	O‘EYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.03	TAT1204	Ta’limda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.04	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.05	TILSH1104	Tilshunoslik	120	4	1
1.06	RGFK1204	Roman-german filologiyasiga kirish	120	4	2
1.07	ADSHK1204	Adabiyotshunoslik	120	4	2
1.08	ONA11-422	Og‘zaki nutq amaliyoti	660	22	1-4
1.09	O‘YA11-632	O‘qish va yozish amaliyoti	960	32	1-6
1.10	AGF11-210	Amaliy grammatika va fonetika	300	10	1-2
1.11	MATT1704	Matbuot tili	120	4	7
1.12	FALS1304	Falsafa	120	4	3
1.13	MSHK1404	Mamlakatshunoslik	120	4	4
1.14	UPSX1304	Umumiy psixologiya	120	4	3
1.15	ICHT13-720	Ikkinchи chet tili	600	20	3-7
1.16	TO‘MTT1508	Tillar o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari	240	8	5-6
1.17	UPED1504	Umumiy pedagogika	120	4	5
1.18	TO‘MA15-608	Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti	240	8	5-6
1.19	O‘TNA15-718	O‘rganilayotgan til nazariy aspektlari	540	16	5-8
1.20	QTIP1804	Qiyosiy tipologiya	120	4	8
1.21	TNA1704	Tarjima nazariyasi va amaliyoti	120	4	8
1.22	O‘RTAU1804	O‘zbek(rus) tilining amaliy uslubiyati	120	4	8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1200</b>	<b>40</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1200	40	3-8
		<b>Jami</b>	<b>6540</b>	<b>218</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	540	18	4,6,7
		<b>Yakuniy davlat attestasiyasi</b>	120	4	8
		<b>Jami</b>	<b>660</b>	<b>22</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T55

OKS 01.040.01

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, ta'lim yo'nalishi, kredit-modul tizimi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, tarjimonlik faoliyati, ta'limni boshqarish, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri menejmenti, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, adabiyot tarixi, bakalavriatning o'quv jarayoni, majburiy va tanlov fanlar, ta'lim sifatini baholash va nazorat qilish, mustaqil ta'lim, konsalting xizmati, kompetentsiyalar, uzlucksiz ta'lim tizimi, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar, davlat attestasiyasi, ilmiy tadqiqot jarayoni, , pedagogik faoliyat.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar  
iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Rektor v.v.b. B.Kulmatov

2023 yil " "



M.O.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

O'zbekiston Milliy universiteti

Direktor

Sh.Yakubov

M.O.

Rektor

I. Madjidov

2023 yil " "

2023 yil " "

Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti

Rektor

G.Rixsiyeva

2023 yil " " "



M.O.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi  
huzuridagi Respublika ta'lim markazi

Direktor

Sh.Sattorov

2023 yil " " "

M.O'.

B.B.

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**  
**60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german tillari bo'yicha) ta'lif yo'naliishi**  
**bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif**  
**muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**  
**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

" " 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Respublika ta'lif markazi direktori Sh.Sattorov, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G.Rixsiyeva, O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidov birgalikda quyidagi bakalavriat ta'lif yo'naliishing malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german tillari bo'yicha) ta'lif yo'naliishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son farmoni, Ta'lif to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 y. 824-son "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 19 maydagagi PQ-5117-son qarori va 28.01.2022 yildagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Respublika ta'lif markazi direktori**

Sh.Sattorov

**O'zbekiston Milliy universiteti**  
**rektori**

I.Madjidov

**Toshkent davlat sharqshunoslik**  
**universiteti rektori**

G.Rixsiyeva

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**  
**rektori v.v.b.**

B.Kulmatov

